Xudayarova Xurshida Abdunazarovna , PhD	
Xalqaro lizing munosabatlarini rivojlantirish va zamonaviy texnologiyalarni joriy etishda uning rolini oshirish	978
Latipova Shaxnoza Maxmudovna	
Raqamli banklar faoliyatini tahlil qilish (Tinkoffbank misolida)	983
Nabiyeva Feruza Odilovna , tayanch doktorant, Parpiyeva Ra'no Abdurasulovna	
Пути организации инновационных процессов в Узбекистане	988
Насиров Дилшод Фарходович	
Цифровизация банков: риски и стратегии управления финансовыми активами в цифровой эпохе.....	992
Кодиров Бобур Абдулбори угли , магистр	
Tijorat banklari depozit bazasini optimallashtirish masalalari	1000
Jumayev Muzaffar Mahmud o'g'li	
Tijorat banklari operatsion xarajatlarini optimallashtirishning ayrim jihatlari.....	1005
Sayfullayev Sirojiddin Soli o'g'li	
Bank kapitali barqarorligini oshirishda iqtisodiy mexanizmlardan foydalanish holati.....	1010
Vasiyev Alisher Samiyevich	
O'zbekistonda fiskal va monetar siyosatni muvofiqlashtirish amaliyotining institutsional tahlili	1014
Hakimjon Hakimov	
O'zbekiston Respublikasi tijorat banklari kredit foiz stavkasini muvofiqlashtirish masalalari	1019
Umurzoqova Adiba Ochilovna	
Korxonalarining investitsiya faolligini ta'minlashda soliq rag'batlarining samaradorligini oshirish	1024
Ilyasova Barno Axmadovna , mustaqil tadqiqotchi	
Xitoy sug'urta bozorida onlayn sug'urta xizmatlar tahlili.....	1028
Qarshiyev Daniyar Eshpulatovich , Iqtisodiyot fanlari falsafa doktori (PhD)	
Ayrim rivojlanayotgan davlatlarda innovatsion bank xizmatlarining rivojlanish tendensiyalari	1033
Maxmudova Muxlisa Qodirjon qizi , PhD	
Soliq ma'muriyatchiligi faoliyati samaradorligini matematik simulyatsion modellashtirish.....	1041
Artikov Ne'matulla Abdusalamovich	
O'zbekistonda akademik mustaqillikni qo'llab-quvvatlash: 2022-yilgi AFI tadqiqotidan olingan tushunchalar va ilmiy istiqbollari	1046
Yuldashev Feruz Isroil o'g'li , tayanch doktorant	
Mintaqaviy rivojlanishdagi nomutanosiblikni tartibga solish funksiyalari.....	1052
Mullabayev Baxtiyarjon Bulturbayevich , iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori	
Tijorat banklarining innovatsion marketing strategiyasi samaradorligini oshirish yo'llari	1058
Tadjibayeva Nigora Gulomjonovna , mustaqil tadqiqotchi	
O'zbekistonda oliy ta'lim tizimini rivojlantirishning marketing strategiyasi va uning amal qilish mexanizmi	1064
Muxtorova Umida Karimovna , katta o'qituvchi	
Аспекты здоровья и питания: влияние продукции животноводства на устойчивые и здоровые рационы	1070
Нуриллаев Рахмат Ярашевич , к.с.х.н., доцент	



TIJORAT BANKLARINING INNOVATSION MARKETING STRATEGIYASI SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO‘LLARI

Tadjibayeva Nigora Gulomjonovna

TDIU Marketing kafedrasida mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya: Maqolada zamonaviy sharoitlarda tijorat banklarining innovatsion marketing strategiyasining zaruriyati, amalga oshirish mexanizmlari tahliliga asoslanib, uning samaradorligini oshirish yo‘llari ishlab chiqilgan. Shuningdek, mazkur yo‘nalishdagi xorijiy va milliy tadqiqotchilarning xulosalari va tijorat banklarining mizojlarni jalb yutish yo‘nalishidagi strategiyasi o‘rganilgan.

Kalit so‘zlar: tijorat banki, marketing, innovatsion marketing, bank marketingi, marketing strategiyasi, marketing vositalari, tijorat banklari resurslari.

Abstract: In the article, the necessity of innovative marketing strategy of commercial banks in modern conditions, ways to increase its efficiency based on the analysis of implementation mechanisms are developed. Also, the conclusions of foreign and national researchers in this direction and the strategy of commercial banks in the direction of attracting customers were studied.

Key words: commercial banking, marketing, innovative marketing, bank marketing, marketing strategy, marketing tools, commercial banking resources.

Аннотация: В статье разрабатывается необходимость инновационной маркетинговой стратегии коммерческих банков в современных условиях, пути повышения ее эффективности на основе анализа механизмов реализации. Также изучены выводы зарубежных и отечественных исследователей в этом направлении и стратегия коммерческих банков в направлении привлечения клиентов.

Ключевые слова: коммерческий банкинг, маркетинг, инновационный маркетинг, банковский маркетинг, маркетинговая стратегия, маркетинговые инструменты, коммерческие банковские ресурсы.

KIRISH

Hozirgi kunda jahonda innovatsion iqtisodiyotning rivojlanishi bank sohasida an’anaviy bank shakllari bilan bir qatorda xizmat ko‘rsatishning zamonaviy onlayn shakllari rivoji, ikkinchi tomondan COVID-19 pandemiyasi oqibatida iste‘molchilarga moliyaviy xizmat ko‘rsatish tizimi murakkablashib borishi sharoitida mijozlar bilan virtual bozorda ehtiyojlariga moslashuvchan marketing vositalaridan keng foydalanish tendensiyasi kuzatilmoqda. Jahon banki, Jahon moliyaviy texnologiyalari (World FinTech Report) hamda Jahon chakana bank xizmatlari (World Retail Banking Report)ning marketing tadqiqotlariga ko‘ra, “2020–2024-yillarda iste‘molchilarning nobank tashkilotlarining onlayn bank xizmatlaridan foydalanish darajasi o‘sib bormoqda. Unda Osiyo bozori yetakchi hisoblanadi”^[1]. 2020-yil holatida dunyo bo‘ylab 1,9 milliardga yaqin jismoniy shaxslar onlayn-banking xizmatlaridan faol foydalanmoqda.

Bugungi kunda mijozlarga yo‘naltirilgan marketing strategiyalaridan foydalanish asosida tijorat banklari faoliyatini takomillashtirish dolzarb muammo sifatida qaralmoqda. Jahon bank marketingi amaliyotida raqobatbardosh ustunlikni ta‘minlashda mijozlarga yo‘naltirilgan marketing konsepsiyalaridan foydalanishning nazariy-uslubiy asoslarini takomillashtirishga bag‘ishlangan ilmiy izlanishlarga katta ahamiyat qaratilmoqda. Bu boradagi innovatsion startaplari va nobank institutlari an’anaviy bank xizmatlarini taqdim etuvchilar uchun mavjud mijozlarni saqlab qolish, moliyaviy xizmat ko‘rsatishning onlayn shakllarini yanada rivojlantirish, jahon moliya bozorining fundamental asoschilari tijorat banklarida mijozga yo‘naltirilgan marketing strategiyalarini ishlab chiqish kabi yo‘nalishdagi ilmiy tadqiqotlar ustuvor darajada bajarilmoqda. O‘zbekiston Respublikasida jahon andozalariga mos holda bank tizimini yanada rivojlantirish, tijorat banklarining likvidligini oshirish va moliya bozorini tartibga solishdagi rolini yanada oshirish, sohada sog‘lom raqobatni chuqurlashtirish kabi yo‘nalishlarda keng qamrovli islohotlar amalga oshirilmoqda.



O'zbekistonda bank tizimida "Davlat ulushiga ega tijorat banklarida transformatsiya jarayonlarini yakunlab 2026-yil yakuniga qadar bank aktivlarida xususiy sektor ulushini 60 foizgacha yetkazish"^[2] kabi qator vazifalar belgilab qo'yilgan. Islohotlar doirasida tijorat banklariga aholining ishonchini mustahkamlash, tadbirkorlik subyektlari bilan to'laqonli hamkorlik munosabatlarini o'rnatishda zamonaviy marketing strategiyalarini maqsadli qo'llash, aholi va xo'jalik subyektlarining bank tizimiga ishonchli institutsional hamkor sifatida qarashlarini mustahkamlash, aholining bo'sh pul mablag'laridan samarali foydalanish kabi vazifalar amalga oshirilmoqda. Bu borada tijorat banklarida mijozlarga yo'naltirilgan marketing strategiyasini ishlab chiqish, banklarning iqtisodiy barqarorligini oshirish, bank tuzilmalari rentabellik darajasini oshirish hamda marketing kommunikatsiyasi va o'zaro munosabatlar omillari ta'sirini hisobga olgan raqamli marketing texnologiyalari va internet banki tizimining mijozlar bilan kommunikatsiya jarayonlarini takomillashtirish kabi yo'nalishlarda ilmiy izlanishlarni yanada chuqurlashtirish maqsadga muvofiq.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Tijorat banklari raqobatbardoshligini mijozga yo'naltirilgan marketing strategiyalari asosida oshirishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlarning ayrim nazariy va amaliy jihatlari xorijlik iqtisodchi olimlardan J. Lamben, F. Kotler, M. Porter, Ye. Dixtel, Ye. Golubkov, J. Al-Samiday, D. Barkan, A. Buzdalin, T. Amblerning ilmiy ishlarida o'z ifodasini topgan.

Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi mamlakatlarida bu borada Ye. Fomenko, Yu. Vayver, S. Kosterina, O. Lavrushin, M. Tavasiyev singari olimlar tadqiqotlar olib borgan. Mazkur olimlarning ilmiy ishlarida tijorat banklari barqarorligi va likvidililigini ta'minlash, banklarning bank xizmatlari bozoridagi mavqeini oshirish va moliyaviy mexanizmlar asosida raqobatbardoshligini ta'minlashning ilmiy qarashlar va mijozga yo'naltirilgan marketing strategiyalaridan foydalanishning ayrim jihatlari e'tibor qaratilgan.

Respublikamiz banklarida mijozlarga yo'naltirilgan marketing strategiyalaridan foydalanishga qaratilgan masalalari M. Boltaboyev, Sh. Ergashxodjayeva, O. Ortiqov, Z. Mustafayev, D. Allayorova, B. Mirzamaydinov, G. Bekmurodova, N. Karabayev, M. Mo'minova, M. Abduraxmanova, J. Yuldashev va boshqa ko'plab olim va mutaxassislar ilmiy izlanishlarida o'z aksini topgan.

ASOSIY QISM

Bank marketingi marketingning ixtisoslashgan sohasi bo'lib, u bank xizmatlari bozorida yuzaga kelgan va rivojlanayotgan raqobat asosida paydo bo'lgan. Bank marketingi konsepsiyasi rivojlangan mamlakatlarda yangi raqobatchilarning paydo bo'lishi, bozor imkoniyatlarining cheklanib borishi va raqobatning kuchayishi tufayli moliyaviy sektor va bilvosita bank sektorining sezilarli o'sishidan keyin rivojlandi.

Bank marketingi – universal banklar (tijorat banklari: jamg'arma va kooperativ banklar) va ixtisoslashgan banklar (haqiqiy kredit tashkilotlari, investitsiya kompaniyalari va boshqalar) sohasida qo'llaniluvchi marketingdir. Moliyaviy xizmatlar bozorida banklar muhim ahamiyatga ega va moliyaviy xizmatlarni asosiy taklif qiluvchilar hisoblanadi^[3]. Bank xizmatlari bozorida kuchli raqobat muhiti shakllanganligi bilan ahamiyatli bo'lib, mazkur bozorda maqsadli harakat qilish uchun nafaqat moliyaviy munosabatlar, balki marketing ham yuqori darajada ahamiyat kasb etadi.

Ilmiy tadqiqot ishlarini o'rganish va umumlashtirish asosida "bank marketingi" tushunchasini quyidagicha ta'riflash mumkin: bank marketingi – mijozlarning moliyaviy (va boshqa tegishli) ehtiyojlari va istaklarini raqobatchilarga nisbatan tezkor va samaraliroq qondirishga qaratilgan xizmatlarni ko'rsatishga yo'naltirilgan funksiyalar yig'indisidir. Bunday funksiyalar yig'indisi mijozlarning ehtiyojlarini aniqlash, yaratish, uyg'otish va uni qondirish bo'yicha integratsiyalashgan harakatlardan iborat bo'lgan individual harakatlar yig'indisi ekanligi asoslandi.

Zamonaviy munosabatlar marketingi tijorat banklarining bank xizmatlari bozorida uzoq muddat samarali faoliyat yuritishining asosiy konsepsiyasi sifatida qaralishi lozimligi asoslangan. Bunday strategiyalar banklar va mijozlar o'rtasida uzoq muddatli munosabatlarni o'rnatishga yordam beradigan aloqa, shaxsiylashtirish, mukofotlash va ishonchga bo'lingan.

Markaziy bank hisobotiga ko'ra, O'zbekistonda 2022-yilda jami kredit tashkilotlari soni 148 tani tashkil etib, 13 ta davlat ulushi mavjud banklar, 17 ta xususiy sektor banklari faoliyat yuritgan. Tijorat banklari filiallari soni 853 taga yetgan. Yaxshi ishlab chiqilgan raqobatli marketing strategiyasiz banklar uzoq muddatli muvaffaqiyatga erisha olmaydi. Afsuski, munosabatlar marketingi harakatlarining bank sohasida mijozlar xatti-harakatlari ta'siriga qaratilgan tadqiqotlar O'zbekiston olimlari tomonidan kam o'rganilgan. O'zbekistonda tijorat banklari "bank-mijoz" tamoyili asosida o'zaro munosabatlar marketingi uchun asos bo'ladigan marketing kompleksini ishlab chiqish bilan bog'liq vazifalarni belgilash maqsadga muvofiq^[4]. Bu esa zamonaviy bank amaliyoti uchun marketing-mix kompleksini shakllantirish lozimligini belgilab beradi. Ilmiy adabiyotlarda keltirilgan mahalliy hududiy banklar va ularning mijozlari o'rtasidagi munosabatlar dinamikasi ham amalga oshirilayotgan ishbilarmonlik aloqalari mustahkamlanib, ularning sheriklik munosabatlariga intilayotganidan dalolat beradi (1-jadval).


**1-jadval: Tijorat banklari va ularning mijozlar bilan aloqalarini rivojlantirishning marketing vositalari**

	Darajasi	Tegishli darajada munosabatlar o'rnatish maqsadi
Boshlang'ich munosabatlar	Asosiy bank xizmatlarini ko'rsatish	Har bir alohida aloqani tezlashtirish va soddalashtirish uchun hamkorlikning tiplanishi va tipologiyasi
Reaktiv munosabatlar	Mijozning savollari va istaklariga bank xodimining tezkor javobi	Iste'molchining xohish-istaklari o'zgarishiga moslashtirilgan javob, konsalting xizmatlar, bank mahsulotiga bo'lgan talabni kuzatish
Javobgarlik munosabatlari	Shikoyat va istaklarni qabul qilish va ko'rib chiqish uchun bank xodimlarining iste'molchilar bilan aloqa hamkorligi	Bozorga chiqarilgan va mijozlarga taklif etilayotgan bank mahsulotlarini takomillashtirish maqsadida muntazam ravishda aloqa hamkorligi sxemasini yaratish
Aktiv munosabatlar	Iste'molchilarni yangi bank mahsulotlari mavjudligi to'g'risida tezkor xabardor qilish	Bank mahsulotlarini taqsimlash jarayonini osonlashtirish, iste'molchilarning individual ehtiyojlarini hisobga olishga urinish
Hamkorlik munosabatlari	Iste'molchilar bilan (real va potensial) "barcha jabhalarda" yaqin hamkorlik	Shaxsiy so'rovlarni hisobga olishga, mijozlarning bankka uzoq muddatli sodiqligini ta'minlashning samarali dasturlarini yaratishga e'tibor qaratish

Tijorat banklarining maqsadli marketing konsepsiyasi sifatida taklif etilayotgan mijozlar bilan uzoq muddatli munosabatlar o'rnatish, marketing munosabatlarini boshqarish uchun bank resurslarini optimallashtirish CRM texnologiyalarisiz mumkin emas. CRM (Customer Relationship Management) – marketing o'zaro munosabatlari, sheriklik, munosabatlarni individuallashtirish va munosabatlarning yuqori qiymatini shakllantirish orqali mijozlarni saqlab qolish va jalb qilishga qaratilgan mijozlar bilan munosabatlarni boshqarish texnologiyasidir.

O'zbekiston tijorat banklari jami resurslari tarkibida muddatsiz va muddatli depozit mablag'larining ulushi 2005-yilda mos ravishda 16,2 va 12,4 foizdan iborat bo'lgan. Aynan mana shu ko'rsatkichlar 2015-yilda mos ravishda Xitoy bank tizimida – 27,9 va 47,3 foizni, Rossiya bank tizimida – 21,0 va 39,48 foizni, Germaniya bank tizimida 14,6 va 31,9 foizni tashkil etgan. Xorijiy mamlakatlarda tijorat banklarining muddatli va jamg'arma depozitlari barqaror moliyaviy manba hisoblanib, bank resurslari tarkibida ularning ulushi sezilarli miqdorni tashkil etadi. Masalan, jami ijtimoiy mahsulot tarkibida muddatli va jamg'arma depozitlarning ulushi 2015-yilda Xitoyda – 78,4 foiz, Latviyada – 21,4 foiz, Rossiyada –24,1 foiz, Ukrainada – 25,0 foiz va Yaponiyada – 56,8 foizni tashkil etgan ^[5]. O'zbekistonda esa 2023-yil 1-yanvar holatiga barcha depozitlarning mamlakat YAIMga nisbati 24,4 foizni tashkil etgan ^[6].

Quyidagi rasmda tijorat banklari jami resurslari tarkibida asosiy manbalarning 2019–2023-yillar 1-yanvar holatidagi salmog'i haqida ma'lumotlar keltirilgan.



1-rasm: O'zbekiston tijorat banklari jami resurslari tarkibida asosiy manbalarning nisbati va dinamikasi, million so'mda ^[7]




1-rasmdan depozitlar hisobidan shakllantirilayotgan mablag'lar ortib borayotganligi ko'rinib turibdi. Depozitlar tarkibida talab qilib olinguncha saqlanadigan mablag'larning ulushi yuqori bo'lib, ushbu mablag'lar mijozning topshirig'iga asosan, istalgan paytda bank hisobvaraqlaridan chiqib ketishi mumkin. Demak, tijorat banklari uchun ushbu resurslar muddati jihatidan nisbatan beqaror moliyaviy manba hisoblanib, bank likvidligini saqlab turishga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Bizning nazarimizda, tijorat banklari jalb qilingan resurslari tarkibida nodepozit mablag'lari ulushining yuqoriligi shundan dalolat beradiki, mamlakatimiz tijorat banklari resurslarni qimmat va uzoq muddatga jalb qilmagan mablag'lar hisobidan shakllantirmoqda. Bu jarayon tijorat banklari moliyaviy holati va likvidligini ta'minlashga salbiy ta'sir ko'rsatishini ta'kidlash mumkin.

Bank resurslarini saqlash va joylashtirishni muddatlar bo'yicha mutanosibligini ta'minlanishini boshqarish. Ushbu mutanosiblikning buzilishi banklarni likvidsizlik holatiga tushib qolishga olib keladi. Ya'ni, tijorat banklari barqaror mablag'larning miqdoridan aktiv operatsiyalarga joylashtirgan xatarli kredit miqdorining ortib ketishi banklarning to'lovga qobiliyatsizlik hamda vakillik hisobvaraqlarda mablag'larning tanqislik xolatiga tushib qolishiga sabab bo'ladi.

Quyidagi 2-rasmda tijorat banklari jalb qilingan muddatli mablag'lari (muddatli va jamg'arma depozitlar, muomalaga chiqarilgan qimmatli qog'ozlar, kredit muassasalaridan olingan kreditlar va ustav kapitali) hamda ularning yuqori riskli aktivlari (kredit va investitsiya mablag'lari) o'rtasidagi mutanosiblik ifodalangan.



2-rasm: O'zbekiston tijorat banklarining muddatli mablag'lar va xatarli aktivlari o'rtasidagi nisbati, hisobot yilining boshiga, million so'mda ^[7]

2-rasmda tijorat banklari resurslari tarkibida jami muddatli mablag'lari (muddatli va jamg'arma depozitlar, emissiya qilingan qimmatli qog'ozlar, banklararo kreditlar) 2019-yil 1-yanvar holatiga muddatli moliyaviy resurslar 132,5 trillion so'mni tashkil etgani holda riskli aktivlar (kreditlar va investitsiyalar) 166,9 trillion so'mdan iborat bo'lgan. Albatta, ushbu farq tijorat banklarining riskli aktivlarini barqaror moliyaviy resurslar bilan ta'minlash bo'yicha muammolar mavjudligidan dalolat beradi. Bu holat 2023-yilda ham saqlanib qolgan va o'rtadagi farq yanada ortgan. Aynan mana shunday vaziyat tijorat banklari vakillik hisobida mablag'lar taqchilligini keltirib chiqarishga va to'lovga layoqatsiz holatga tushib qolishiga sabab bo'ladi.

Keltirilgan ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, tijorat banklari riskka ega bo'lgan aktivlarining miqdori barqaror mablag'lari hajmidan sezilarli darajada yuqori bo'lib, bu banklar depozit siyosatining zaifligidan dalolat bermoqda. Shu bilan birga, tijorat banklari tomonidan jalb qilingan mablag'larning asosiy qismini kreditlarga joylashtirilishi ushbu banklarning majburiyatlarini bajarish bo'yicha ham muammoli holatlarni vujudga kelishiga sabab bo'lmoqda.

Strategik rejalashtirish prinsipi, umuman olganda, bozor prognozlari va ilmiy-texnikaviy taraqqiyotning rivojlanishi prognozlariga asoslangan ishlab chiqarish va sotish marketing dasturlarini yaratishni o'z ichiga oladi, shuningdek, bozor va iste'molchilarga nafaqat kompaniya siyosatini ishlab chiqarish talablariga moslashtirishni taklif qiladi., balki ularga intensiv ta'sir ko'rsatish, boshqalarga esa, kompaniyaning strategik maqsadlariga mos keladigan bozor va iste'molchilarning ehtiyojlarini shakllantirish muayyan strategiyalari va tadbirlarini o'z ichiga oladi. Faoliyatning strategik yo'nalishini tanlashda bir xil bozorda raqobatchilarni rivojlantirishda vaqt



va mohiyatan strategik yo'nalish bilan mos kelish xavfi mavjud. Shuning uchun asosiy vazifa u yoki bu strategiya boshqa kompaniyalar strategiyasidan qanday farq qilishi mumkinligini aniqlashdan iborat. Shuning uchun kompaniyaning boshqa kompaniyalar oldida raqobatbardosh pozitsiyasini shakllantirish va kompaniya strategiyasini ishlab chiqishda raqobatchilar strategiyasidan ortda qolmasligini ta'minlash kerak.

Marketing tadqiqotlari bankning innovatsion rivojlanishini ta'minlovchi tizimning muhim qismidir. Marketing tadqiqotlari natijasida olingan ma'lumotlar adekvat innovatsion strategiyalarni ishlab chiqishga yordam beradi. Marketing tadqiqotlarining asosiy natijasi muammolar va ichki zaxiralarni aniqlash imkonini beruvchi ma'lumotlar bo'lib, zarurat tug'ilganda bankning faol rivojlanishi uchun innovatsiyalarni joriy etish dasturini shakllantirish imkonini beradi. Raqobatchilarni tahlil qilgandan so'ng, bankning o'zi kompaniyaning hayot aylanishini tahlil qilish kerak. Bu omil bozorga muvaffaqiyatli kirib borishning ko'rsatkichi bo'lib, bank xizmatlarining hayot aylanish bosqichlarini hisobga olgan holda, marketing strategiyasini keyingi rejalashtirishga ta'sir qiladi. Bank xizmatining hayotiy sikli - ma'lum bir xizmatni ko'rsatish to'g'risida qaror qabul qilingan paytdan boshlab, uning ma'lum bir bozorga kirishi va uni ko'rsatish to'xtatilgan paytgacha bo'lgan barcha marketing elementlarini tavsiflovchi jarayon hisoblanadi.

Marketing jarayoni mijozni o'rganishdan, shuningdek, uning ehtiyojlarini aniqlashdan boshlanib, tovarlarni (xizmatlarni) sotib olish va uning real va potensial ehtiyojlarini qondirish bilan yakunlanadi. Yangi turdagi bank xizmatlarini yaratish jarayoni bank xodimlarini, ularning ish joylarini, shuningdek, ushbu xizmatlarni ko'rsatish usullarini o'qitishdan boshlanadi. Misol uchun, mijoz bankka kirganida, u o'z harakatini standart yo'nalishda, ya'ni chapdan o'ngga boshlaydi. Yangi xizmatlar ko'rsatish zalining chap tomonida joylashgan bo'lsa, mijoz ularga ko'proq e'tibor berishga intiladi va ulardan foydalanish ehtimoli ortadi. Bank marketingini bank boshqaruvining ajralmas qismi deb hisoblash mumkin, buning natijasida u asosan rivojlanish strategiyasi bilan bog'liq. Strategik marketingning mohiyati uning bank siyosatida aks etishidir, ya'ni yangi bank mahsulotlarini tadqiq qilish, joriy etish va o'rganish oldindan o'tkazilgan marketing tadqiqotlari asosida amalga oshiriladi. Taktik marketing bank mahsulotlari iste'molchilari bilan ishlash texnologiyasini, bank mahsulotlari bozoridagi raqobatchilarni to'g'ri baholash usullarini - ularning kuchli va zaif tomonlarini, bank xizmatlari uchun segment va joy tanlash mezonlarini va ularning ta'sir doirasini kengaytirish imkonini beradi. Bank muassasasi rahbariyati iste'molchilarning mahsulotga bo'lgan so'rovlarini, bank xizmatlarining iste'molchi uchun eng qiziq bo'lgan va aksincha, salbiy his-tuyg'ularni keltirib chiqaradigan xususiyatlarini batafsil o'rganishda samarali bo'ladi. Bank xizmatlarini har qanday rag'batlantirishning asosi bankning o'zining mavjud mijozlari va potensial mijozlari, shuningdek, umumiy aholi bilan muloqotidir. Ammo rag'batlantirish nafaqat aloqa yoki ma'lumotlar almashinuvi, balki mijozni moliyaviy xizmat uchun bankka murojaat qilish zarurligiga ishonitirishga qaratilgan maqsadli muloqot harakatidir. Aynan shuning uchun ham reklama bank muassasasining strategik maqsadlariga erishishda marketing vositalari arsenalidagi markaziy o'rinlardan biri hisoblanadi. Bu marketing strategiyasini yaratishda ham, bevosita bank marketingini boshqarish jarayonida ham juda ehtiyotkorlik bilan yondashishni talab qiladi. Bank marketingining asosiy tamoyillariga quyidagilar kiradi:

- 1) bank faoliyatida yakuniy natijalarga erishishga yo'naltirish – mijozlarning talablarini yuqori darajada qondiradigan xizmatlar ko'rsatish. Foyda olish bankning asosiy maqsadi emas;
- 2) marketing faoliyati bilan bog'liq uzoq muddatli natijalarga e'tibor qaratish.
- 3) taktika va strategiyaning birligi, potensial mijozlarning talablariga moslashish uchun faol choralarni tanlash va ularga parallel ravishda maqsadli ta'sir ko'rsatish. Ushbu tamoyillarni qo'llash raqobatbardosh bank sxemalariga e'tibor qaratishdan dalolat beradi;

XULOSA

Bankning innovatsion marketing strategiyasi mijozlarga (asosiy, istiqbolli, potensial) va mahsulotlarga (hozirgi va yangi) strategik e'tiborni o'z ichiga oladi. Marketingni rejalashtirish marketing tadqiqotlarini o'tkazish, marketing rejasini ishlab chiqish, munosabatlarni rivojlantirish dasturini tuzish, shuningdek, har bir menejer uchun shaxsan individual rejani tuzishdan iborat.

Marketing strategiyasi bank sektoridagi marketing kredit resurslari bozorini o'rganish, maqsadli auditoriyaning moliyaviy holatini tahlil qilish va shu asosda banklarga depozitlarni jalb qilish imkoniyatlarini, bank faoliyatidagi o'zgarishlarni bashorat qilishga qaratilgan. Korxonalar va tashkilotlarga istalgan bankda o'z hisob raqamlarini ochishga ruxsat berilgan zamonaviy sharoitda bank sohasida raqobat darajasi oshib bormoqda. Marketing mijozlar bazasini va bank xizmatlari ko'lamini kengaytirish uchun qulay shart-sharoitlarni ta'minlashga qaratilgan bo'lib, mijozlarga ma'lum bir bankda hisob varaqa ochishdan manfaatdor bo'lish imkonini beradi. Xizmat ko'rsatish sohasida banklar aviakompaniyalardan keyin ikkinchi bo'lib marketingdan foydalanadilar va birinchi navbatda, marketingning alohida elementlarini faol qo'llashni boshladilar, keyin esa, marketing va strategik rejalashtirishning to'liq konsepsiyasiga o'tdilar.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. <https://www.statista.com/statistics/1228757/online-banking-users-worldwide>.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022-2026-yillarga mo'jallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni.
3. Фоменко, Е.Г. Маркетинговое управление капитализацией финансовых институтов [Текст] / Е.Г. Фоменко, Л.Ю. Андреева и др. // Организационные формы управления знаниями в посткризисной экономике : моногр. – М. : Вузовская книга, 2010. – 24,97 п.л. / 0,4 п.л
4. Ortiqov O.A. Banklararo raqobat sharoitida bank xizmatlari va ularni takomillashtirish yo'llari. Iqtisod fanlari nomzodi dissertatsiya avtoreferati. – T., 2009-y.
5. International Financial Statistics IMF. July 2016.
6. O'zbekiston Respublikasi Markaziy bank statistik byulletini materillari asosida muallif tomonidan tayyorlangan.
7. Tijorat banklarining e'lon qilgan hisobot ma'lumotlari asosida tuzildi.

Yashil

IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Xondamir Ismoilov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2023. № 10

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: [@iqtisodiyot_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77)

Telefon: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, [@iqtisodiyot_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77) telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnalning ilmiyligi:

"Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2023-yil 1-apreldagi 336/3-sonli qarori bilan ro'yxatdan o'tkazilgan.